

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAXANOV SHAVKATJON ZAIRJANOVICH

**MARKAZIY OSIYO ANKLAV/EKSKLAV HUDUDLARINI IQTISODIY
GEOGRAFIK VA SIYOSIY GEOGRAFIK TADQIQ ETISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
географическим наук (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor
geographical sciences (DSc)**

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich

Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari 3

Жумаханов Шавкатжон Заиржанович

Методологические основы экономико-географических и политико-географических исследований анклавных/экславных территорий Центральной Азии 29

Jumakhanov Shavkatjon Zairjanovich

Methodological foundations of economic-geographical and political-geographical studies of enclave/exclave areas of Central Asia 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAXANOV SHAVKATJON ZAIRJANOVICH

**MARKAZIY OSIYO ANKLAV/EKSKLAV HUDUDLARINI IQTISODIY
GEOGRAFIK VA SIYOSIY GEOGRAFIK TADQIQ ETISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Gr46 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nauka.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna
geografiya fanlari doktori, professor

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rafiqov Vahob Asomovich
geografiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 22-iyun soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-14; faks: (99871) 246-02-24; E-mail: ikgeografiya.nuu@mail.ru. O‘zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 10-iyun kuni tarqatildi.
(2023-yil 22-iyundagi 52- raqamli reyestr bayonnomasi)

N.I.Sabitova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, g.f.d., professor

Sh.M.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, g.f.d., dotsent

Z.N.Tojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi, xalqaro aloqalarning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tezlashuviga, maxsus hududlarning shakllanishi va transchegaraviy resurslardan birgalikda foydalanishning murakkablashuviga olib kelmoqda. Mazkur muammolarning ijobiy yechimi sifatida bir qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari departamentining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturida «Barqaror rivojlanish manfaatlarini yo'lida global hamkorlikni faollashtirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash»¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa, mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, transchegaraviy xususiyatga ega bo'lgan anklav/eksklav hududlardagi vaziyatni barqarorlashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, anklav/eksklav hududlarni shakllantiruvchi omillarni aniqlash hamda hududiy kategoriya sifatidagi tamoyil va mezonlarini ishlab chiqish, anklav/eksklav hududlardagi resurslardan birgalikda samarali foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, asosiy va o'rab turuvchi davlatlar o'rtasidagi vektorli munosabatlarni modellashtirish, jahon makromintaqalaridagi anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va davriy o'zgarib borishini aniqlash, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rin imkoniyatlarini baholash, tabiiy sharoitiga bog'liq holda xo'jalik ixtisoslashuvini aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini barqarorlashtirishga oid tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda ochiq va pragmatik, yaxshi qo'shniçilik, o'zaro ishonç va hurmatga asoslangan tashqi siyosatni amalga oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan². Bu borada, chegaralanishdagi o'ziga xos siyosiy geografik tuzilma – anklav/eksklav hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-sonli «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi PQ-4798-sonli «2020 – 2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-

¹ Sustainable Development Goals / Department of Economic and Social Affairs // <https://sdgs.un.org/goals/goal17>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққийёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони

sonli «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Maskur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Bir mamlakatga tegishli, ammo boshqa davlat chegaralari ichida joylashgan anklav/eksklav hududlarning huquqiy maqomini aniqlash, iqtisodiy va siyosiy geografik xususiyatlarini baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi tashkilotlari, ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan: Harvard University, New York University, Stanford University, University of Chicago, University of Florida (AQSh); University of British Columbia (Kanada); Newcastle University, University of Oxford, University of Cambridge (Buyuk Britaniya); University of Melbourne (Avstraliya); Humboldt-Universität zu Berlin (Germaniya); Sorbonne Université, Université Grenoble Alpes (Fransiya); Wageningen University and Research Center (Niderlandiya); International University of Business and Economical (Xitoy); Singapore Management University (Singapur); University of Zurich (Shveysariya); Komazawa university (Yaponiya); Московский государственный университет, Санкт-Петербургский государственный экономический университет, Балтийский федеральный университет (Rossiya); Қазақ ұлттық университеті (Qozog'iston); Кыргыз улуттук университети (Qirg'iz Respublikasi); Донишгоҳи миллии Тоҷикистон (Tojikiston) kabi oliy o'quv yurtlari, shuningdek, United Nations Development Programme (UNDP, BMTning rivojlanish Dasturi); The World Bank (Jahon banki, AQSh) va boshqalarda olib borilmoqda.

Anklav/eksklav hududlarning huquqiy maqomini aniqlash, vektorli munosabatlarini modellashtirish, tabiiy sharoit va resurslarining ishlab chiqarish ixtisoslashuvi bilan aloqadorligini asoslash bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: to'liq va yarim suveren anklav davlatlar ajratilgan (The World Bank, AQSh); anklav hududlar tipologiyasi va ularning o'ziga xos funksiyasi aniqlangan (Humboldt-Universität zu Berlin, Germaniya); anklav hududlardagi chegara muammolarining qiyosiy modellari ishlab chiqilgan (Newcastle University, Buyuk Britaniya); anklav/eksklav hududlarni tarixiy-geografik tadqiq etishda geografik determinizm metodikasi takomillashtirilgan (Sorbonne Université, Fransiya); anklav/eksklav hududlardagi resurslardan turistik maqsadlarda samarali foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari baholangan (Wageningen University and Research Center, Niderlandiya); anklavlar klassifikatsiyasi takomillashtirilgan hamda turli

³ Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy – tadqiqotlar sharhi: URL: <https://www.ined.fr>, <https://www.edu>, <https://eh.net/encyclopedia/article> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

ko'rinishlari modellashtirilgan (Балтийский федеральный университет имени Иммануила Канта, Rossiya).

Jahonda anklav/eksklav hududlarni iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: jahon mamlakatlari siyosiy geografik xususiyatlari, davlat boshqaruv shakllari, davlat tuzilishi, hududiy-siyosiy tizimlarni monitoring qilish; anklav/eksklav hududlarni geoiqtisodiy va geosiyosiy barqarorligini baholash; anklav/eksklav tushunchalari tavsifi, klassifikatsiyasi, huquqiy maqomi bilan bog'liq masalalarni nazariy jihatdan baholash; suveren anklav davlatlarning geosiyosiy holati, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va siyosiy geografik maqomini baholash asoslarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda anklav/eksklav hududlardagi mavjud muammolarni siyosiy geografik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish bilan bog'liq ko'plab ilmiy ish va maqolalar mavjud.

Chunonchi, agar xorijiy tadqiqotchilar anklav/eksklav muammolarini bevosita geoiqtisodiy va geosiyosiy subyekt sifatida tahlil qilgan bo'lsa, mahalliy olimlar tomonidan ushbu masalani ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatlarini o'zlarining ayrim tadqiqot ishlarida bilvosita ko'rib chiqilgan. Shunga qaramasdan, mavjud muammolarni siyosiy geografik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida, vektorli munosabatlar asosida tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar ma'lum darajada chegaralanganligi bilan ajralib turadi.

Xorijiy olimlar, jumladan, H.M.Catudal, B.Fazendeiro, M.I.Glasner, N.Megoran, A.Melamid, J.Minghi, S.Nies, D'Olivier Farran, M.Pietkiewicz, J.R.Prescott, P.Raton, G.W.Robinson, I.Siedentop, E.Schuyler, A.Taylor, B.R.Whyte; И.А.Буяновский, М.В.Виноградов, Е.Ю.Винокуров, М.М.Голубчик, С.Журавский, В.М.Зайцев, Ю.М.Зверев, Т.В.Зверинцева, Ю.Д.Рожков-Юрьевский va boshqalarning ilmiy izlanishlarida dunyo mintaqalarining geosiyosiy va geoiqtisodiy holati, siyosiy geografik manzarasi va anklav/eksklav hududlarga oid tadqiqotlar o'z ifodasini topgan.

Markaziy osiyolik olimlardan S.K.Alamanov, S.Anvari, A.A.Aubakirova, Y.I.Ahmadaliyev, R.F.Gabdulhakov, A.T.Jalilov, A.Koychiyev, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, S.S.Safoyev, O'.So'fiyev, V.Maslov, M.I.Nazarov, A.A.Ibraimova, F.F.Tolipov, V.N.Fedorko va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Jahon bo'yicha suveren anklav davlatlar, to'liq va yarim anklav hududlarda shakllangan muammolarga ko'pgina ishlar bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, eng muhim geosiyosiy mintaqalardan biri – Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarning iqtisodiy geografik va siyosiy geografik xususiyatlarini o'rganishga doir tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi ayni shu masalalarni yechishga qaratilganligi bilan avvalgilardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170929525 «Namangan viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va

sotishning marketing strategiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyihasi bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik rivojlanishiga xos hududiy xususiyatlarini aniqlash va o‘zaro hududiy munosabatlar tizimini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

anklav/eksklavlarni hududiy kategoriya sifatida nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etishning tamoyil va yondashuvlarini aniqlash;

jahondagi anklav/eksklavlarning hududiy modellarini nazariy jihatdan asoslab berish;

Markaziy Osiyoda anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va o‘zgarish jarayonining tarixiy-geografik rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarining etimologiyasini tarixiy, lingvistik, semantik jihatdan o‘rganish hamda tabiiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda tasnifini ishlab chiqish;

Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarning xo‘jalik ixtisoslashuvi va uni belgilab beruvchi omillarni aniqlash, rivojlanish muammolarini tadqiq etish hamda tegishli muammolarni yechimi yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mintaqadagi eng yirik So‘x submilliy anklavini kompleks geografik tadqiq etish hamda ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va anklav/eksklavligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarining yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Markaziy Osiyoda shakllanayotgan hozirgi siyosiy-tarixiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, o‘zaro integratsiya jarayonlarining mavjud anklav/eksklav hududlardagi vaziyatga ta‘sirini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi anklav/eksklav hududlar olingan.

Tadqiqotning predmeti Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarining shakllanishi va davriy o‘zgarib borishi, geosiyosiy va iqtisodiy geografik o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va vektorli munosabatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-geografik tahlil, kartografik, geografik taqqoslash, tizim-tarkib, statistik tahlil, sotsiologik so‘rov, geografik modellashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

anklav/eksklav hududlarga oid tadqiqot metodologiyasi ularni shakllantiruvchi va yo‘qolib ketishiga ta‘sir etuvchi, geosiyosiy va geoiqtisodiy muammolarni yuzaga keltiruvchi hamda tasniflashga asos bo‘luvchi omillarni aniqlash orqali takomillashtirilgan;

murakkab tuzilgan bir necha tartibli anklavlar yoki «matryoshka» tipidagi anklavlarning «integratsion», «etnik va diniy», «hududiy va ijtimoiy» omillar asosida yuzaga kelish modellari ishlab chiqilgan;

Markaziy Osiyoda anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va o‘zgarish jarayoni tarixiy-geografik jihatdan davrlashtirilgan va tegishli siyosiy geografik jarayonlarni yuzaga keltirgan omillar aniqlangan;

konseptual «MES⁴ anklavlar uchburchagi» modeli asosida «submilliy anklav» tushunchasi So‘x anklavining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilgan, mohiyati va olti tomonlama vektorli siyosiy-hududiy munosabatlar tizimi asoslangan;

Markaziy Osiyoning to‘liq anklav/eksklav – So‘x, Vorux, Shohimardon, Sarvak, Cho‘ng‘ara, Jangail, Barak, Qayrag‘och hududlari nomining etimologiyasi tarixiy, semantik, lingvistik, lug‘aviy-geografik jihatdan aniqlashtirilgan hamda ushbu nomlarning tabiiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda tasnifi ishlab chiqilgan;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarning ixtisoslashuvi aniqlangan hamda mintaqa davlatlarining o‘zaro integratsiya jarayonlari yangi davr nuqtai nazaridan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

anklav/eksklav hududlarning namoyon bo‘lish shakllari asosida ishlab chiqilgan tasnif takomillashtirilgan;

murakkab tuzilgan bir necha qatlamli («matryoshka» ko‘rinishidagi) anklavlarning integratsion, etnokonfessional, ijtimoiy-hududiy kabi tiplari ajratilgan;

Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlar siyosiy geografik jihatdan kompleks tadqiq etilgan hamda So‘x anklavi misolida «submilliy anklav» tushunchasining olti tomonlama vektorli munosabatlar tizimi ishlab chiqilgan;

So‘x anklavida hududiy mehnat taqsimoti aniqlangan va yerdan foydalanish xaritasi yaratilgan;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida Markaziy Osiyoda shakllangan to‘liq anklav/eksklav hududlarning ixtisoslashuvi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Markaziy Osiyo mamlakatlari Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgani, oliy ta‘lim tizimida amaliyotda joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati anklav/eksklav hududlarni geografik tadqiq etish metodologiyasi takomillashtirilganligi va tasnifining ishlab chiqilganligi, vektorli munosabatlar tizimining aniqlashtirilganligi, anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va o‘zgarish jarayoni tarixiy-geografik jihatdan davrlashtirilganligi hamda submilliy anklav tushunchasining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aniqlangan qonuniyatlar va ishlab chiqilgan tavsiyalar anklav/eksklav hududlarda ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllarini to‘g‘ri joylashtirish, ixtisoslashuv tarmoqlarini takomillashtirish, transchegaraviy resurslardan birgalikda foydalanish, anklav/esklav hududlarning salohiyatidan samarali foydalanishga doir o‘zaro hamkorlikdagi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

⁴ Mainland state (asosiy davlat) + Enclave (anklav) + Surrounding state (o‘rab turuvchi davlat)

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarni iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rganishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar asosida:

Anklav/eksklav hududlarni shakllantiruvchi va yo'qolib ketishiga ta'sir etuvchi, geosiyosiy va geoiqtisodiy muammolarni yuzaga keltiruvchi hamda tasniflashga asos bo'luvchi omillar orqali takomillashtirilgan metodologiyasi «Siyosiy geografiya» nomli darslikka singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyul, 233-sonli buyrug'i. Guvohnoma №233-0357). Natijada, talabalarning anklav/eksklav hududlarni shakllantiruvchi va yo'qolib ketishiga ta'sir etuvchi hamda tasniflashga asos bo'luvchi omillarni baholash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatini bergan;

murakkab tuzilgan bir necha tartibli anklavlarning geosiyosiy muhiti va unga ta'sir etuvchi bosh omil nuqtai nazaridan integratsion, entik va diniy, hududiy va ijtimoiy kabi ishlab chiqilgan modellari «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi» nomli darslikka singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-may, 237-sonli buyrug'i Guvohnoma №233-0357). Natijada, magistrantlarning bir necha tartibli anklavlar yoki «matryoshka» tipidagi anklavlarning «integratsion», «etnik va diniy», «hududiy va ijtimoiy» omillar asosida mavjud bo'lish modellari haqidagi ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini bergan;

Markaziy Osiyoda anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va o'zgarish jarayoni tarixiy-geografik jihatdan davrlashtirilgan hamda tegishli siyosiy geografik jarayonlarni yuzaga keltirgan omillarning aniqlanganligi Markaziy Osiyo mamlakatlari chegaralarining delimitatsiya va demarkatsiya jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligining 2023-yil 24-fevraldagi №01-19/7231-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Markaziy Osiyoni tinchlik va o'zaro manfaatli hamkorlik makoniga, o'zaro chegaralarni esa do'stlik va yaxshi qo'shnichilik ko'prigiga aylantirish imkonini bergan;

konseptual «MES anklavlar uchburchagi» modeli asosida submilliy anklav tushunchasi So'x anklavining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilgan, mohiyati va olti tomonlama vektorli siyosiy-hududiy munosabatlar tizimining asoslanganligi «Siyosiy geografiya» nomli darslikka singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyul, 233-sonli buyrug'i. Guvohnoma №233-0357). Natijada, talabalarda submilliy anklav tushunchasining mohiyati va olti tomonlama siyosiy-hududiy jarayonlar tizimi bilan bog'liq vektorli munosabatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini bergan;

Markaziy Osiyoning to'liq anklav/eksklav – So'x, Vorux, Shohimardon, Sarvak, Cho'ng'ara, Jangail, Barak, Qayrag'och hududlarining etimologiyasi tarixiy, semantik, lingvistik, lug'aviy-geografik jihatdan takomillashtirilgan hamda tabiiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda tasnifining ishlab chiqilganligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligida anklav/eksklav hududlarning geografik nomlanishini aniqlashtirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligining 2023-yil 24-fevraldagi №01-19/7231-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlar bilan bog'liq mintaqaviy siyosatga oid dasturlarini takomillashtirish imkonini bergan;

tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarning ixtisoslashuvi aniqlangan hamda mintaqa davlatlarining o‘zaro integratsiya jarayonlari yangi davr nuqtai nazaridan asoslanganligi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligi tomonidan Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligining 2023-yil 24-fevraldagi №01-19/7231-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, anklav/eksklav hududlar bilan bog‘liq davlatlararo munosabatlar tizimini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 39 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shundan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, shundan 13 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa va amaliy tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida o‘z aksini topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 227 sahifa, shundan matn qismi 187 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida O‘zbekiston Respublikasi va jahonda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumot berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi «**Anklav/eksklav hududlarni siyosiy geografik jihatdan tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlangan bo‘lib, unda anklav/eksklav hududlarni geografik kategoriya sifatida tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari, anklav hududlarning shakllanish bosqichlari, anklav/eksklav hududlarda shakllangan muammolarni tadqiq etishning geosiyosiy va geoiqtisodiy tahliliga bag‘ishlangan masalalar o‘z ifodasini topgan.

Anklav tushunchasi hududiy kategoriya sifatida o‘zining qo‘llanish tarixiga ega. Atamaning aynan o‘zi ishlatilmasa-da, muayyan hududlarda anklavlarning mavjudligi haqidagi ma’lumotlar, dastlab, diniy manbalarda uchraydi. Jumladan, Bibliyada ushbu atama asosiy aholisi bitta dinga e’tiqod qiluvchi hududlardagi alohida diniy guruhlarini ta’riflash maqsadida ishlatilgan. 1526-yilgi «Madrid shartnomasi» *anklav* termini qo‘llanilgan dastlabki rasmiy hujjat hisoblanadi. Ingliz tiliga esa «anklav» atamasi kechroq, ya’ni 1868-yilda fransuz tili orqali kirib kelgan.

Anklav (fransuzcha, *enclave* – «qulflab olish», «o‘rab olish») – bu bir davlatning hamma tomondan boshqa davlat hududi bilan o‘rab olingan hududi yoki hududining bir qismidir. Aniqroq qilib aytganda, anklav – bu bir mamlakatga tegishli, ammo boshqa davlat chegaralari ichida joylashgan hudud hisoblanadi. Bunday hududlarning geografik joydashedagi o‘ziga xoslik ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mazkur sohaga oid izlanishlarda S.Alamanov, R.M.Alimov, R.Gabdulhakov, M.Glassner, S.Juravskiy, H.Katudal, A.Koychiyev, V.Maslov, N.Megoran, A.Melamid, J.Mingi, S.Nis, D’Olivye Farran, J.Preskott, P.Raton, G.Robinson, Y.Rojkov-Yuryevskiy, I.Sidentop, A.S.Soliyev, A.Taylor, F.F.Tolipov, B.Uayt, M.Vinogradov, Y.Vinokurov, V.Zaytsev, T.Zverintseva va boshqalarning ilmiy ishlari ahamiyatli bo‘lib, ularning tadqiqotlarida, asosan, anklav/eksklav hududlarning geosiyosiy vaziyati va huquqiy maqomiga e‘tibor qaratilgan.


Yuqoridagi olimlar tomonidan anklavlarning ma‘lum darajada tasnifi ishlab chiqilgan. Biroq mavjud adabiyotlarda tahliliy masalalar tizimlashtirilmaganligi sababli anklavlarni kompleks tadqiq etishda biroz noaniqliklar ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan, mazkur dissertatsiya ishida anklavlar geografik kategoriya sifatida tahlil etilib, ularning namoyon bo‘lish shakllariga oid metodologiya takomillashtirilgan.

Jumladan, anklav hududlar bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirish uchun geografik va geosiyosiy yondashish tamoyiliga ko‘ra – *anklav, eksklav, asosiy davlat, o‘rab turuvchi davlat* kabi kategoriyalar ajratildi.

Anklav/eksklav hududlarni joylashuv o‘rniga ko‘ra, ya‘ni topologik tamoyil (yunoncha, «*topos*» – joy) asosida tasniflash orqali ularning hududiylik yanada aniq ifodalanadi. Bunda anklavning o‘rab turuvchi davlat bilan qanchalik o‘ralganligi, asosiy davlat bilan bog‘lanishning o‘ziga xosligi kabilar inobatga olinib, anklav/eksklavlarning turli xil hududiy ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi topologik tamoyil asosida anklav/eksklav hududlarni – *to‘liq anklav, yarim anklav, sof eksklav, peneanklav* kabi kategoriyalarga ajratish mumkin. Anklav/eksklavlarning topologiyasi ularning geografik xususiyati bo‘lsa, ularning suvereniteti siyosiy jihati hisoblanadi. Shu jihatdan, boshqaruv tamoyiliga ko‘ra: *suveren to‘liq anklav davlat, suveren yarim anklav davlat, tegishli to‘liq anklav hudud, tegishli yarim anklav hudud* kabilarni ajratish mumkin.

Mazkur tizimli tahlil orqali anklav hududlarni kompleks o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Anklavlarga oid izlanishlarda omillar doimo asosiy o‘rin egallagan. Mazkur tadqiqot ishida anklavlarni shakllantiruvchi va yo‘qolib ketishiga ta‘sir etuvchi omillar guruhlashtirilgan hamda anklav hududlar bilan bog‘liq muammolar ajratilgan (1-rasm). Anklavlar tasnifi ishlab chiqilishi asosida kompleks tadqiq etish metodologiyasi takomillashtirilgan.

Ikkinchi bob «**Anklav/eksklav hududlarni baholashning iqtisodiy va siyosiy geografik jihatlari**»ning ilmiy-nazariy masalariga bag‘ishlangan bo‘lib, jahon xo‘jaligi tizimida anklav/eksklav hududlar hamda ularning tasnifi, suveren anklav davlatlarning iqtisodiy va siyosiy geografik tavsifi, bir necha tartibli joylashuvga ega «matryoshka» tipidagi anklav hududlarning geografik modellari va ularning o‘ziga xos ko‘rinishlarini yoritishga qaratilgan.



1-rasm. Anklav hududlarni tadqiq etishning kompleks tahlili

Xalqaro munosabatlar jarayonida hududi butunlay o‘zga davlat chegaralari bilan o‘rab olingan suveren davlatlar mavjudligi ham kuzatiladi. Odatda, bunday davlatlarni mustaqil bo‘lmagan anklav hududlardan farqlash uchun «anklav davlatlar» yoki «yarim anklav davlatlar» deb yuritiladi. Suveren anklav davlatlar o‘zi mustaqil tuzilma bo‘lgani uchun tashqi siyosati, iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarini keng yo‘lga qo‘yishda qo‘shni davlatga tayanishini inobatga olib, integratsion qo‘shnichilik aloqalarini amalga oshirilishi eng maqbul jarayon hisoblanadi. Aynan, ushbu mezon Lesoto, San-Marino, Vatikan; Gambiya, Bruney va Monako kabi mamlakatlarda nizoli vaziyatlarning deyarli uchramasligiga sabab bo‘lgan.

Suverenlik jihatdan mustaqil bo‘lmay, ma’lum davlatga tegishli hududiy birlik sifatida nomustaqil anklav hududlar doim yakka holatda joylashvermaydi. Bir hududda bir-biriga yaqin joylashgan anklavlar kompleksi ba’zan shunday joylashuvga ega bo‘ladiki, bunda ular bir-biriga yaqin masofada emas, balki biri boshqasining ichida joylashadi. Chunonchi, bu kabi joylashuvni «matryoshka» misolida izohlash mumkin. Bunda kattaroq anklav ichida qo‘shni davlat eksklavining o‘rin egallashi ularning topologiyasida bir necha (birinchi, ikkinchi va uchinchi) tartibli joylashuvni namoyon qiladi. «Matryoshka» tipidagi anklavlar o‘zi namoyon qiluvchi geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyatlarning dolzarbligi jihatidan alohida o‘rganishni taqozo etadi. Oxirgi chorak asrda shakllangan «matryoshka»larning vujudga kelish omillari asosida ajratilgan modellarni tahlil qilish ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur tipga mansub anklavlardagi holat hududiy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning vujudga kelishi o‘sha hududning tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Ushbu tadqiqot ishida jahondagi mavjud bir necha tartibli anklavlarni o‘rganish asosida «Yevropa», «Janubiy Osiyo», «Yaqin Sharq» modellari ishlab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval

«Matryoshka» tipidagi anklavlarning geografik modellari

Yevropa modeli	Janubiy Osiyo modeli	Yaqin Sharq modeli
Integratsion omil	Etnik va diniy omillar	Hududiy va ijtimoiy omillar
Baarle: Baarle-Xertog Baarle-Nassau	Kuch-Bixar: Hindiston Kuch-Bixari Bangladesh Kuch-Bixari	«Arab sallasi»⁵: Madha Nahva

Jadval tahlilii ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Yevropa modeli. Niderlandiya hududida 22 ta Belgiyaga tegishli anklav tarkib topgan bo‘lib, o‘z navbatida, ularning ichida Niderlandiyaning ikkinchi tartibli 7 ta eksklavi joylashgan. Shuningdek, Belgiya hududida yana bir Niderlandiyaga qarashli birinchi tartibli alohida joylashgan eksklav mavjud. Ushbu Baarle kompleksida integratsiya omili sabab anklavlik xususiyatlariga oid geosiyosiy va geoiqtisodiy muammolar ko‘zga tashlanmaydi.

⁵ Salla (forscha, «tugun») — musulmon erkaklarning bosh kiyimi. Sallaning tashqi ko‘rinishidan kelib chiqqan holda, ushbu birinchi va ikkinchi tartibli anklavlarga nisbatan muallif tomonidan mazkur «arab sallasi» atamasi kiritildi.

Janubiy Osiyo modeli. Hindiston hududida Bangladeshga tegishli 71 ta birinchi tartibli eksklav tarkib topgan bo‘lib, o‘z navbatida, ularning ichida Hindistonning ikkinchi tartibli 7 ta eksklavi joylashgan. Shuningdek, Bangladesh hududida Hindistonga qarashli 102 ta birinchi tartibli, ularning ichida Bangladeshga tegishli 21 ta ikkinchi tartibli eksklavlar shakllangan. Upanchovki Bxayni deb nomlangan ikkinchi tartibli Bangladesh eksklavi ichida dunyoda yagona uchinchi tartibli hind eksklavi – Dahal Hagrabari joylashgandi. Mazkur modelga mansub anklavlarda chegaralanishning juda murakkabligi, diniy va etnik qarama-qarshiliklar tufayli uzoq yillar davomida aholi o‘rtasida nizo va kelishmovchiliklar takrorlanib turgan. 2015 – 2016-yillarda ikki mamlakat o‘rtasida kelishuv amalga oshirilib, o‘zaro yer almashtirish orqali anklavlarning ko‘pchiligi dezanklavlashtiriladi va aholiga fuqarolikni tanlash imkoniyati beriladi. Natijada, Kuch-Bixar mintaqasida anklav/eksklav hududlar muammosi ma’lum darajada, o‘z yechimini topadi.

Yaqin Sharq modeli. Arabiston yarim orolining shimoli-sharqida Madha va Nahva anklavlaridan iborat yana bir «matryoshka» mavjud. Ushbu anklavlarda etnik, diniy va lingvistik umumiylik ko‘zga tashlanib, faqat siyosiy iroda anklavlarning shakllanishida asosiy o‘rin tutgan. Bunda, anklav hudud + asosiy davlat + o‘rab turuvchi davlat («matryoshka»da shunday vazifadagi anklav hudud) o‘rtasida savdo aloqalari va transport tranzitligining murakkab bo‘lmagan bojxona nazoratidan o‘tkazilishi, biroq ulardan geosiyosiy bosim o‘tkazish vositasi sifatida foydalanilmaydi.

Tahlil etilgan modellar asosida mavjud muammolarni bartaraf etishga oid tajribalarni Markaziy Osiyo anklavlarida ham amaliyotga tadbiiq etish taklif etilgan.

Uchinchi bob «**Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarning geografik tahlili**» deb nomlangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor Markaziy Osiyoda anklav hududlarning shakllanish tarixi, mintaqada vujudga kelgan anklav/eksklav hududlar tavsifi, jahondagi eng yirik to‘liq anklav – So‘x submilliy anklavining kompleks geografik va geosiyosiy vaziyatini baholashga qaratilgan.

Markaziy Osiyo – Yevrosiyo materigining markazida joylashgan, geografik o‘rniga ko‘ra o‘ziga xos hudud bo‘lib, tabiiy va inson resurslariga g‘oyat boy, ayniqsa, yadroviy qurolga ega bo‘lgan Rossiya–Xitoy–Eron mamlakatlari o‘rtasida joylashgan geostrategik ahamiyatga ega subregion hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va narkobiznes tahdidi mavjud, subregion bevosita beqarorlikning yirik o‘chog‘i yaqinida joylashgan. Bu vaziyat mintaqadagi mamlakatlarning o‘zaro hamkorlik va yaxlitlikda faoliyat olib borishini taqozo etadi. Hozirgi davrda mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liq. Chunki uning hududiy joylashuvi hamda geografik jihatlari yaxlit bir makonni shakllantirishni talab qiladi.

Aynan shu jihatdan, ming yillar davomida mazkur hudud yagona kompleks sifatida shakllangan bo‘lsa-da, yaqin o‘tmishdagi geosiyosiy omillar natijasida bir butun daryo havzasida tarkib topgan amirlik va xonliklar «millat – davlat»larga bo‘lib yuboriladi. Markaziy Osiyodagi chegaraviy muammolarning shakllanishiga 1924-yil va undan keyin yana bir necha marta amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi sabab bo‘lgan. Mintaqadagi xalqlarning tarixiy, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga juda kam e’tibor berilgan. Mintaqadagi xalqlarning turli

millatliligi, tillari orasidagi farqlarga qaramay madaniy-xo'jalik faoliyatining yagona boshqarish doirasida siyosiy jihatdan umumlashganligi inkor etilgan. Natijada, juda katta limologik nizolar uchun yo'l ochiladi hamda chegaralanishdagi bir necha bahsli hududlar – anklav/eksklavlar shakllanadi (2-jadval).

2-jadval

Markaziy Osiyo anklav/eksklavlarining hududiy tarkibi

№	Nomi	Asosiy davlat (tumani bilan)	O'rab turuvchi davlat (tumani bilan)	Tarkib topgan yili	Transport yo'laklari	Maydoni (km ²)	Aholisi (ming kishi)
To'liq anklav hududlar							
1	So'x	O'zbekiston (So'x)	Qirg'iziston (Batken va Qadamjoy)	1955	Rishton-So'x (R-149), 35 km Vodil-Qadamjoy-So'x (R-144), 81 km	221	80,6
2	Shohimardon	O'zbekiston (Farg'ona)	Qirg'iziston (Qadamjoy)	1930	Vodil-Qadamjoy-Shohimardon (R-144a), 25 km	90	6,0
3	Cho'ng'ara	O'zbekiston (Rishton)	Qirg'iziston (Batken)	1955	Rishton-Cho'ng'ara, (EM-13), 24 km	2,61	1,4
4	Jangail	O'zbekiston (Farg'ona)	Qirg'iziston (Qadamjoy)	1955	Toshtepa-Yuqori Vodil (R-148), 4,8 km	0,42	0,150
5	Vorux	Tojikiston (Isfara)	Qirg'iziston (Batken)	1974	Chorkux-Vorux (RB-16), 28 km	130	45,0
6	G'arbiy Qal'acha	Tojikiston (Jabbor Rasulov)	Qirg'iziston (Laylak)	1959	Mehrobod-Suluktu (EM-16), 21 km	0,88	-
7	Sarvak	Tojikiston (Asht)	O'zbekiston (Pop)	1935	Charogon-Navbunyod (A-112), 23 km	8,4	0,560
Mintaqadagi dezanklav hudud							
8	Barak	Qirg'iziston (Qorasuv)	O'zbekiston (Qo'rg'ontepa)	1953	Chorvador-Yorqishloq-Do'stlik (A-373), 3,5 km	2,30	0,625 (2014)

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Mintaqadagi barcha to'liq anklavlarning tabiiy resurslari cheklangan, «demografik yuki» og'ir va xilma-xil etnoslardan iborat hudud – Farg'ona vodiysida vujudga kelgan. Xususan, Qirg'izistonning Batken viloyatida, O'zbekistonning 4 ta (So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara, Jangail) va Tojikistonning 2 ta (Vorux, G'arbiy Qal'acha) eksklavlari tarkib topgan. O'zbekistonning Namangan viloyatida Tojikistonga tegishli Sarvak nomli eksklav joylashgan (2-rasm). Qolaversa, tabiiy

geografik xususiyatlarni inobatga olmay o'tkazilgan chegaralanish oqibatida Turkiston (sobiq Janubiy Qozog'iston) viloyatiga tegishli Maktaaral va Arnasoy hududlari peneanklav sifatida tarkib topgan.

O'zbekistonning Qirg'iziston hududidagi eksklavlari. **So'x** (so'g'd tilida «yoqimli») – Markaziy Osiyodagi eng yirik to'liq anklav. O'zbekistonga tegishli mazkur eksklav Oloy tizmasining shimoliy va Qatran tizmasining g'arbiy qismida joylashgan. Anklav sifatida hamma tomondan Qirg'izistonning Qadamjoy va Batken tumanlari bilan o'ralgan hamda So'x daryosining yuqori va o'rta oqimlarida joylashgan bo'lib, hududi shimoldan janubga deyarli 40 km, g'arbdan sharqqa 2 – 12 km cho'zilgan.


Maydoni 221 km², o'rab turgan davlat bilan chegara uzunligi 135 km. Asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 11 kilometr ga teng bo'lsa ham, ikki yo'nalish: 35 kilometrlik «Rishton-So'x» («Qaytpas» bojxona nazorat o'tkazish posti) hamda 81 kilometrlik «Vodil-Qadamjoy-So'x» yo'nalishidagi («Qizil-Qiya» bojxona nazorat o'tkazish posti) avtotransport yo'llari orqali asosiy davlat bilan bog'lanadi.

XVIII asrning oxiriga qadar So'x mustaqil ma'muriy beklik bo'lgan, keyinchalik 1876-yilga qadar Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan. Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olganidan keyin 1880-yilning boshida mustaqil qishloq sifatida Turkiston general gubernatorligining Qo'qon uyezdi tarkibiga kiritiladi. Sovet hokimiyati to'liq o'rnatilganidan so'ng, 1926-yilda So'x hududi Rishton tumaniga qo'shiladi. 1950-yillardagi xaritalardan ko'rish mumkinki, o'sha vaqtlarda So'x O'zbekistonning bevosita davomi bo'lgan.

1955-yilda Moskva tomonidan So'xning shimoliy qismini Qirg'iziston Sovet Respublikasiga qo'shib yuborilishi bilan asosiy davlatdan uzilib qoladi hamda anklav sifatida tarkib topadi. Mazkur davrda So'x va Rishton oralig'idagi hududlardan chorvador qirg'izlarning yaylov sifatida foydalanishi ko'zlangan va milliy chegaralanish xususiyatlari inobatga olinmagan. Davlat chegaralanishining bunday nooqilona o'tkazilishi, keyinchalik, ko'plab muammolarning yuzaga kelishiga zamin yaratgan. So'x hududi 1942–1959-yillarda alohida tuman sifatida tashkil etiladi. Biroq, 1959–1990-yillarda yana qayta Rishton tumani tarkibiga kiritiladi. Keyinchalik, 1990-yilning 27-fevralida ma'muriy markazi Ravon shaharchasi bo'lgan tuman sifatida qayta tashkil etiladi.

Hukumat tomonidan amalga oshirilgan ko'plab chora-tadbirlarga qaramay, uzoq vaqt mobaynida So'xning asosiy davlatdan uzilib qolishi anklav iqtisodiyotida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Anklavnini yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020 – 2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4798-sonli Qarori imzolandi. Qaror Farg'ona viloyati So'x tumanining mavjud resurslaridan samarali foydalanish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiyalash, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, sanoat salohiyatini yanada oshirish, qishloq xo'jaligi, servis va xizmat ko'rsatish



2-rasm. Farg'ona vodiysidagi tōliq anklav/eksklav hududlar kartasi.

sifatini yaxshilash maqsadida qabul qilingan bo‘lib, u bilan birgalikda 2020 – 2021-yillarda So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ham tasdiqlangan.

Natijada, anklavning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, So‘x anklavida 2021-yilda sanoat ishlab chiqarishi 103,6 foizga, qurilish ishlari 107,4 foizga, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 108,0 foizga, chakana savdo aylanmasi 101,7 foizga, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar qariyb 2,4 barobarga o‘ydi.

Hukumat dasturi qabul qilingan davrda hududda shifoxonlardagi koykalar soni 2,8, barcha toifadagi tibbiyot xodimlari soni va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlari 1,9, tarbiyalanuvchilar soni 1,3 martaga hamda umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari 5,7 foizga oshgan. So‘x hududi yetarlicha rivojlanish salohiyatiga ega. Ulardan tizimli foydalanilsa, hudud aholisining hayot darajasi ko‘tariladi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati yaxshilanib, anklavlik muammosi bartaraf etiladi hamda «o‘shish qutblari»dan biri sifatida tarkib topadi.

Shohimardon (fors tilida «*mardlar shohi*») – O‘zbekistonning Qirg‘iz Respublikasi Batken viloyatining Qadamjoy tumanida joylashgan eksklavi. Oloy tizmasining shimoliy yonbag‘rida, Oqsuv va Ko‘ksuv daryolarining qo‘shilib, Shohimardonsoyni vujudga keltiradigan vodiya joylashgan. Anklavni sharqdan Bel-Mazar, g‘arbdan Kuru-Salaa, janubdan Oloy tizmasining shimoliy yonbag‘irlari o‘rab turadi, faqatgina Shohimardonsoy oqib chiqib ketadigan shimol tomondan ochiq.

Maydoni 90 km², aholisi 6 ming kishidan ortiq. Asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 14,8 km bo‘lib, ona davlat bilan «Vodil–Qadamjoy–Shohimardon» (R-144a avtotransport yo‘li) yo‘nalishida kecha-kunduz ishlaydigan «Qizil-Qiya» nazorat o‘tkazish posti orqali bog‘lanadi.

Qirg‘izistonning sobiq Hamzaobod qishlog‘i 1930-yilda O‘zbekiston eksklavi sifatida shakllanadi. «O‘zbekiston Shveysariyasi» deb ataladigan Shohimardon vodiysining de-yure maqomi ko‘p yillar mobaynida bahsli bo‘lgan. 2004-yilda anklavning tegishlilik jihatlari ikki mamlakat mutasaddilari o‘rtasida tarixiy xususiyatlari tahlil etilib, huquqiy tomondan qayta ko‘rib chiqilgan. 2007-yilning bahorida O‘zbekiston va Qirg‘iziston hukumatlari tomonidan ikki mamlakat fuqarolariga ikki oygacha vizasiz sayohat qilish huquqini beruvchi shartnoma ratifikatsiya qilindi. 2018-yil avgustdagi chegaralarni demarkatsiya qilish jarayonida Shohimardon O‘zbekistonning xavfsiz hududi sifatida ma‘lum qilindi. Natijada, anklav chegarasining noaniqligiga barham berilib, 41 kmlik chegara to‘la rasmiylashtirildi.

Hozirda anklavga ziyorat va ekoturizm oqimini ko‘paytirish va infratuzilmalarni takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy va o‘rab turuvchi davlatlar o‘rtasida imzolangan strategik sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv natijasida anklavda ko‘plab muammolar o‘z yechimini topdi.

Cho‘ng‘ara (qirg‘iz tilida «*zodagonlar yeri*») – O‘zbekistonning Qirg‘iz Respublikasi Batken viloyatidagi 1,5 ming kishiga yaqin aholi yashaydigan 261 gektar maydonga ega eksklavi.

Ushbu qishloq hududi 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish va 50-yillardagi umumsovet xaritalarida ham So‘xning bir qismi sifatida O‘zbekistonga bevosita tutash bo‘lgan. Legitim asosga ega bo‘lmagan delimitatsiya jarayonlari natijasida 1955-yili So‘x tumani bilan birgalikda Cho‘ng‘ara qishlog‘i ham O‘zbekistondan ajralib, anklav sifatida tarkib topadi. Anklav ma‘muriy jihatdan Farg‘ona viloyatining Rishton tumaniga tegishli. Bir necha o‘n yillar davomida Rishton – So‘x oralig‘idagi bojxona-chegara posti yopiqligi tufayli tuman markazidan Cho‘ng‘ara qishlog‘iga va, aksincha, anklavdan tuman markaziga borish murakkabliklarni keltirib chiqargan. Jumladan, «Vodil» bojxona-chegara postigacha 100 kilometr aylanma yo‘l bosib o‘tib, yana 40 kilometr O‘zbekiston hududini kesib o‘tishi lozim edi. Bunday noqulayliklar Cho‘ng‘ara qishlog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. 2021-yil aprelda «Qaytpas» nazorat o‘tkazish posti orqali «Rishton – So‘x» yo‘nalishidagi yo‘lning qayta ochilishi natijasida 24 kilometrlik avtomobil yo‘li bilan asosiy davlatga bog‘lanish imkoniyati vujudga keldi.

Jangail (qirg‘iz tilida «*yangi qishloq*») – O‘zbekistonning Qirg‘iz Respublikasi Batken viloyatida joylashgan eksklavi. Tabiiy geografik jihatdan Shohimardonsoy yoyilmasining g‘arbiy tarmog‘ida joylashgan.

Maydoni 42 gektar, aholisi 150 kishidan ortiq. Asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 0,76 km bo‘lib, «Toshtepa–Yuqori Vodil» (R-148) yo‘nalishidagi avtomobil yo‘li bilan bog‘langan.

Markaziy Osiyo chegaralarni belgilash Komissiyasi plenumining 1925-yil 17-martdagi 7-sonli bayonnomasiga binoan, anklav o‘rnidagi Toshtepa qishlog‘i O‘zbekiston SSR hududi sifatida qayd etiladi. Keyinchalik, qishloq atrofida qirg‘iz xo‘jalik tarmoqlarining tarkib topishi uni O‘zbekistonning asosiy hududidan uzilib qolishiga sabab bo‘ladi. 1955-yilda Paritet komissiyasining yerdan haqiqiy foydalanishga qarab chegara o‘tkazish prinsipi asosida Toshtepa qishlog‘i anklavga aylanib qolgan.

Geografik o‘rniga ko‘ra, asosiy davlatga juda yaqin masofada joylashgan. Aholisining ozligi sababli mazkur anklavda katta «geosiyosiy orol»lik muammolari kuzatilmaydi.

Tojikistonning Qirg‘iziston hududidagi eksklavlari. **Vorux** (so‘g‘d tilida «*qo‘rg‘on*») – Tojikistonning Qirg‘iz Respublikasi Batken viloyatida joylashgan eksklavi bo‘lib, Karavshin daryosining o‘ng irmog‘i – Kshemish daryo vodiysida joylashgan. Maydoni 130 km², aholisi 45 ming kishidan ortiq. Asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 3,7 km bo‘lsa ham, 28 kilometrlik Chorkux – Vorux yo‘li orqali ona davlat bilan bog‘lanadi.

Hudud qadimiy tarixga ega. Jumladan, Z.M.Bobur o‘zining «Boburnoma» me‘muar asarida uni, aynan, Vorux nomi bilan keltirib, uning Isfara viloyatining to‘rt tarkibiy qismidan biri ekanligini yozib qoldirgan.

Diniy tarkibiga ko‘ra, mutloq musulmonlardan iborat. Hududning shimoli-g‘arbida aholi alohida e‘zozlaydigan «Mug‘ qabri» nomli qabr mavjud. Qolaversa, Voruxda islom ulamolari va aziz avliyolarning qabr-ziyoratgohlari (Mazori Shimirg‘oniy, Mazori Balogardon va boshqalar) joylashgan. Natijada, ichki diniy turizm rivojlangan. Qishloqdagi arxeologik qazish ishlari natijasida (Qorabuloq,

To'ratosh, Isfara, Vorux hududlarida) o'ziga xos qizil naqshinkor kulolchilik buyumlari topilgan. Bularning barchasi anklavda qadimdan aholi yashab kelayotganligidan dalolat beradi.

O'tgan asrning 60–70-yillarida Chorkux – Vorux oralig'idagi yaylovlar qirg'iz chorvadorlari tomonidan foydalanish uchun ijaraga olinishi va, keyinchalik, qaytarilmasligi natijasida Vorux anklavga aylanib qolgan hamda asosiy davlatga borib-kelishda ko'plab qiyinchiliklar vujudga kelgan. Natijada, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida Vorux bilan asosiy davlatni bog'laydigan yo'l masalasida munozaralar davom etib kelmoqda. Anklav hududni respublikaning asosiy qismi bilan bog'lanish muammosi chegaralarning delimitatsiyasi jarayonida dolzarb masala sifatida yuzaga chiqmoqda. Yuqoridagi kabi holatlarni inobatga olgan holda, Tojikiston – Qirg'iziston hukumatlari o'zaro do'stona munosabatlarda siyosiy iroda ko'rsatib, teng tomonlama hamkorlikni amalga oshirishi eng maqbul yechim hisoblanadi.

G'arbiy Qal'acha (topologiyasidan kelib chiqqan holda «*g'arbdagi qo'rg'on*») – Tojikiston Respublikasi Jabbor Rasulov (sobiq Proletar) tumaniga qarashli Qirg'iz Respublikasi Batken viloyati Laylak tumanining shimoli-g'arbidagi eksklav. Maydoni 0,88 km², asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 2,36 km.

Eksklav Jabbor Rasulov tumani markazi – Mehroboddan 7 km janubda va Laylak tumanidagi Suluktu shahridan 14 km shimolda joylashgan. U ikki shaharni bog'laydigan «Mehrobod-Suluktu» temir yo'l liniyasidagi Qayrag'och stansiyasidan iborat. Anklavda temir yo'lga xizmat ko'rsatish shahobchalari va iqtisodiy obyektlar joylashtirilgan.

XX asr ikkinchi yarmigacha G'arbiy Qal'acha bahsli hudud funksiyasini bajarmagan. Ushbu hududda tojik vakillari tomonidan barpo etilgan transport-infratuzilma obyektlari joylashgani sababli, 1950-yillardan keyingi qayta delimitatsiya jarayonida Tojikiston SSRga tegishli zona sifatida belgilangan. Aynan, anklav sifatida 1959- va 1989-yillarda Qirg'iziston SSR va Tojikiston SSR hukumatlari qoshidagi Paritet komissiyasi qaroriga asosan rasmiylashtirilib, «Tojikiston SSRning Leninobod viloyati Proletar tumaniga qarashli Moskva kolxozining birinchi sonli uchastkasi» sifatida qayd etilgan. Ayni paytda, anklavda doimiy aholi istiqomat qilmasa-da, Qirg'izistonning Laylak tumanidagi ikki yirik aholi punktlari – Buloqboshi va Oqariqni bog'laydigan muhim yo'l ustida joylashgani bois, asosiy va o'rab turuvchi davlat munosabatlarining «siyosiy barometr»laridan biri hisoblanadi.

Tojikistonning O'zbekiston hududidagi eksklavi. Sarvak (pushtun tilida «*eng yaxshi*») – Tojikistonning O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Pop tumanining g'arbiy qismida, Sarvaksoy havzasida joylashgan eksklavi bo'lib, Tojikiston shimolidagi Asht tumani Oriyon jamoatining o'zbeklar eng ko'p yashaydigan punkti hisoblanadi.

Maydoni 8,4 km², aholisi 560 kishidan ortiq, asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 1,2 km. Anklav 30 km masofada Charogon-Navbunyod mahalliy avtomobil yo'li bilan «Navbunyod» nazorat o'tkazish posti orqali asosiy davlat bilan bog'lanadi.

Farg‘ona vodiysi bilan O‘zbekistonning boshqa qismlarini bog‘laydigan strategik ahamiyatga ega avtomobil va temir yo‘lining anklav yaqinidan o‘tganligi, qolaversa, Qamchiq dovonining mazkur tojik eksklaviga yaqinligi Sarvakning anklavlik xususiyatini uzoq yillar davomida yanada keskinlashishiga sabab bo‘lgan. So‘nggi besh yillikda O‘zbekiston–Tojikiston davlatlararo munosabatlarining iliqlashuvi, hukumat rahbarlarining anklav hududning maqomi bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvga erishishi barobarida anklavdan ona davlatga o‘tishdagi ko‘plab murakkabliklar bartaraf etildi hamda o‘rab turuvchi davlat bilan aloqalar barqarorlashtirildi.

Qirg‘izistonning O‘zbekiston hududidagi sobiq eksklavi. Barak (arab tilida «*barakali*») – Qirg‘iz Respublikasi Qorasuv tumaniga qarashli O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida 1953 – 2018-yillarda mavjud bo‘lgan eksklav. Maydoni 230 gektar, aholisi 625 kishi (2014), asosiy davlatgacha eng yaqin masofa 3,5 km bo‘lgan. Anklav aholisi asosiy davlat bilan Xo‘jaobod tumanidagi kecha-kunduz ishlaydigan «Do‘stlik» bojxona nazorat o‘tkazish posti orqali O‘sh shahriga olib chiqadigan yo‘l bilan bog‘langan.

1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish davrida O‘zbekiston SSR hududida RSFSRning Qora-Qirg‘iz avtonom okrugiga tegishli ma‘muriy birliklari mavjud bo‘lmagan. Shuningdek, Sobiq Ittifoq Ichki Ishlar Xalq Komissarligi kartografiya Bosh boshqarmasiga qarashli Markaziy Osiyo kartografiya fabrikasi tomonidan tuzilib, 1936-yilda nashr etilgan xaritalarda ham O‘zbekiston SSR hududida Qirg‘iziston SSRga tegishli Barak (Qizil Bayroq) anklavi mavjudligi ko‘rsatilmagan. 1940–1950-yillarda bir guruh qirg‘iz dehqonlarining Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanining janubi-sharqiga joylashib, ovul ko‘rinishida tarkib topishi natijasida O‘zbekiston SSR tarkibida Barak aholi punkti topologik fragment ko‘rinishida shakllanadi. Sug‘orma dehqonchilikka asoslangan mazkur hududda o‘rab turuvchi davlat aholisi bilan ko‘plab ijtimoiy ziddiyatlar, irrigatsiya va transportdan foydalanish muammolari kelib chiqadi.

Davlatlar mustaqillikka erishganidan so‘ng, yuqoridagi muammolar yanada keskinlashdi. Natijada, anklav aholisi asosiy davlatga ko‘chib keta boshlaydi. Jumladan, 2000-yillargacha anklav hududda 1,25 ming kishi doimiy istiqomat qilgan. Anklavning demografik ko‘lami 2011-yil 728 kishiga tushib qolgan bo‘lsa, 2013-yil qishloqda atigi 20 ta oila xo‘jaligi qoladi, xolos.

Hududda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlasha boshlagach, ikki mamlakat rasmiylari o‘rtasida anklavlik muammosini bartaraf etish bosh masalaga aylanadi. Chunonchi, 2017-yil 5 – 6-sentabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qirg‘iz Respublikasiga rasmiy davlat tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi muammolar hamda delimitatsiya-demarkatsiya masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston-Qirg‘iziston o‘rtasida Barak anklavi o‘rniga teng maydondagi yer almashlash orqali muammoning hal etilishi kelishib olinadi. Chegara masalalari, xususan, anklav borasidagi kelishuvlarning natijasi o‘laroq, 2018-yil avgustda Qirg‘iziston-O‘zbekiston chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish yuzasidan Barakni O‘zbekistonga topshirish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Bunda Barak anklavi o‘rniga O‘zbekiston Qirg‘izistonga Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa tumani Birlashgan qishlog‘i hududida ikki davlat chegarasida joylashgan yer hududi

almashtiriladi hamda anklav aholisi Barak o'rniga O'zbekiston tomonidan berilgan hududga ko'chirilishi rejalashtiriladi. Bu orqali, Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida yagona qirg'iz eksklavi yo'qolib, u bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topadi.

Jahondagi boshqa anklavlardan farqli ravishda, Markaziy Osiyo anklavlari o'zining o'ta nozik vektorli munosabatlari bilan o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Aytish mumkinki, anklavlar hududiy bo'shliqda emas, manfaatlari turlicha bo'lgan mamlakatlar bilan o'rab olingan bo'ladi va, ko'pincha, ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Anklavlikni asosiy (ona) davlat va o'rab turuvchi davlat munosabatlari kesishgan hudud shakllantiradi. Bu ikki tomon «MES anklavlar uchburchagi» sifatida taqdim etiladigan konseptual uchburchakning tarkibiy qismidir.

Bu nazariya anklavlarni o'rganish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. «MES anklavlar uchburchagi» to'rt vektordan iborat: birinchisi – asosiy davlat va anklav o'rtasidagi munosabatlar; ikkinchisi – anklav va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi munosabatlar; uchinchisi – asosiy va o'rab turuvchi davlatlar o'rtasidagi munosabatlar; to'rtinchisi – asosiy va o'rab turuvchi davlatlar o'rtasidagi bevosita anklavga tegishli masalalar bo'yicha munosabatlar.

Uchburchakni tashkil etuvchi vektorlar ikki tomon (asosiy va o'rab turuvchi davlat)ga qaratilgan bo'lib, bu tomonlarning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Biroq, bu ta'sir har doim ham tomonlarning kuchlari bilan to'g'ri proporsional bo'lavermaydi.

Odatda, ona davlat anklav ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Asosiy davlatning anklavga qaratilgan mintaqaviy siyosati anklav moslashishi kerak bo'lgan vaziyatni belgilaydi. Bundan tashqari, o'rab turuvchi davlatning iqtisodiy va siyosiy ta'siri ham anklav hayotida muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, anklav qanchalik kichik va ahamiyatsiz bo'lishidan qat'i nazar, u asosiy va o'rab turuvchi davlat hamda ularning ikki tomonlama munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi nazariya asosida ularning o'zaro munosabatlari (MES)ni quyidagi to'rt vektor asosida tavsiflash mumkin:

1. Asosiy davlat va anklav (M + E) o'rtasidagi munosabatlar. Anklavlik nuqtai nazaridan, bu vektor eng muhim hisoblanadi. Odatda, bu munosabatlar zanjiri anklavning iqtisodiyoti va siyosatini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda, asosiy davlatning ajralmas qismi bo'lgan anklav uning siyosiy va huquqiy tizimiga bo'ysunadi. Ona davlat anklav hududga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, asosiy davlat anklavni maxsus vakolat bilan ta'minlashi mumkin. Siyosiy nuqtai nazardan, anklavning siyosiy hayoti ona davlatni havotirga soladi. Bu, ko'pincha, mamlakatda chiqarilgan siyosiy qarorlar va rivojlanish konsepsiyasiga ta'sir qiladi. Misol uchun, anklavni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish yoki mahalliy hokimiyatning ayrim cheklovlari ona davlatning anklav ustidan to'liq nazoratini ta'minlash uchun qo'llaniladi: *Birinchidan*, markaziy hukumat anklavning yo'qolishi mumkinligidan xavotirda bo'lib, bu asosiy davlat uchun salbiy «rag'bat» bo'lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan*, anklavlarni markaziy hukumat oldida sezilarli darajada muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan strategik, harbiy va geosiyosiy sabablar mavjud bo'lib, bu ijobiy «rag'bat»ni shakllantiradi. Ushbu yuqoridagi ikki omil, odatda, markaziy hukumatning har qanday holatda ham anklavni saqlab qolish istagi borasida yetarlicha «vazn»ga ega.

2. *Anklav va o‘rab turuvchi davlat (E + S) o‘rtasidagi munosabatlar.* Ona davlat anklavga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatishiga qaramasdan, o‘rab turuvchi davlatning ta‘sir doirasi ham o‘ziga xos kuchga ega. Binobarin, o‘rab turuvchi davlatning ta‘siri sust yoki faol bo‘ladi. Xususan, o‘rab turuvchi davlatning anklavga nisbatan hatti-harakatlari asosiy davlat tomonidan anklavni suverenitet jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida ma‘lum cheklanishga uchraydi. Shved olimi Rudolf Chellen davlatni bir butun organizmga qiyoslaydi. Shu xususida, asosiy davlat yaxlit vujud bo‘lsa, «mitti»gina hududiy birlik – anklav u uchun «tirnoqqa kirgan zirapcha» tusiga kiradi. Asosiy va o‘rab turuvchi davlat munosabatlari qaltis geosiyosiy vaziyat bo‘lib, anklavlar muammosi ba‘zan «yara ustiga chipqon» bo‘lishi mumkin. Bu geografik joylashuv tufayli harbiy-strategik rejada tashvishlanish uchun sabab bo‘la oladi. Bundan tashqari, huquqiy rejimlarning farqlari, kontrabanda qilish imkoniyatlari, chegaralarni saqlash xarajatlari va boshqalar asosida ba‘zi iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

3. *Asosiy va o‘rab turuvchi davlatlar o‘rtasidagi (M + S) munosabatlar* anklavga oid masalalar bo‘yicha umumiy aloqalarni aks ettiradi. Anklavdagi farovonlik va tartib-qoidalar, asosan, o‘rab turuvchi va asosiy davlatlar munosabatlariga bog‘liq. Agar bu munosabatlar anklavga bevosita aloqador bo‘lmagan masalalar bo‘yicha yomonlashsa ham, anklavga salbiy bosim kuchayadi. Ya‘ni, asosiy va o‘rab turuvchi davlatlarning anklav/eksklavga aloqasi yo‘q jarayonlarda o‘zaro munosabatlarining salbiylasha borishi anklavga kirib-chiqish va undagi vaziyatlarni keskinlashuviga olib keladi. Aksincha, davlatlar o‘rtasidagi tinch va do‘stona munosabatlar anklav uchun qulay muhit yaratadi.


4. *Asosiy va o‘rab turuvchi davlatlar o‘rtasidagi bevosita anklavga tegishli masalalar bo‘yicha munosabatlar (M + E + S).* To‘rtinchi vektor o‘zidan avvalgi munosabatlarga nisbatan yaqqol namoyon bo‘lmasa-da, alohida ahamiyatga ega. Asosiy davlat tomonidan milliy siyosatdagi anklavlarga berilgan e‘tibor ularning hududiy xususiyatlariga qaratilgan bo‘lib, anklavdagi aholi soniga teskari proporsional bo‘lishi mumkin. Jumladan, ayrim anklav hududlar «demografik yuk»ka ega bo‘lmasa ham, hududiy birlik sifatida geostrategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jahon siyosiy xaritasida hozirgi kunda shunday hududlar borki, bunday anklavlarning mavjud bo‘lishi to‘rt tomonlama munosabatni (3^A -rasm) ifoda etuvchi sof anklavlardan qo‘shimcha vektorli munosabatlari orqali ajralib turadi. Bunday anklavlar to‘rt emas, olti tomonlama vektorli munosabatni namoyon qiladi (3^B -rasm).

Ushbu jarayonda anklav aholisining etnik ildizi asosiy va o‘rab turuvchi davlatga emas, balki boshqa bir uchinchi mamlakat etnik birligiga mansub bo‘ladi. Natijada, o‘ziga xos submilliy anklav shakllanadi. Chunonchi, *asosiy davlat + etnik ildiz (M+O)*, *o‘rab turuvchi davlat + etnik ildiz (S+O)* munosabatlari vujudga keladi. Bu vaziyatda asosiy davlat anklav aholisining etnik xususiyatlariga binoan mintaqaviy siyosat yuritisa, o‘rab turuvchi davlat bu vaziyatni inobatga olgan holda tashqi siyosat olib boradi.

Boshqa anklav hududlarga o‘xshamagan tarzda, submilliy vektorli munosabatlarning namoyon etishi, transport, yaylov va suv manbalarining

transchegaraviyligi, o‘rab turuvchi davlat bilan chegara zonalarida resurslardan birgalikda foydalanish lozimligi So‘x anklavini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.



3-rasm. Anklav/eksklav hududlardagi to‘rt (A) va submilliy anklavni shakllantiruvchi olti (B) tomonli aloqalar.

Shu jihatdan, So‘x anklavidagi mavjud muammolarni o‘rganish maqsadida turli yoshdagi, har xil soha vakillaridan iborat anklav aholisi o‘rtasida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomaning maqsadi So‘x tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini aniqlash bo‘lib, bu boradagi respondentlarning fikrlarini o‘rganish natijasida mavjud muammolarning yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Respondentlarning reprezentiv javoblari natijasida So‘x tumani iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy tarmoqlar – transchegaraviy va cheklangan tabiiy resurslardan unumli foydalanish, sanoatni modernizatsiya qilish, transport va yo‘llar sifatini yaxshilash, qurilish sohasini qulaylik indeksi asosida tashkil etish, ijtimoiy himoyani tizimli amalga oshirish, ta‘lim va tibbiyot sohalarini takomillashtirish, turizmni rivojlantirish kabi sohalar ekanligi aniqlandi va So‘x tumanini strategik rivojlantirishning ustuvor sohalarini sifatida belgilash mumkinligi asoslandi.

«Markaziy Osiyo siyosiy geografik manzarasining o‘ziga xos xususiyatlari» deb nomlangan to‘rtinchi bobning asosiy mazmuni Markaziy Osiyo mamlakatlarining geosiyosiy va siyosiy geografik vaziyati, mintaqadagi anklav/eksklav hududlar bilan bog‘lik muammolar va ularning yechimlari, Markaziy Osiyoda yaxlit mintaqani shakllantirish maqsadida amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalarining iqtisodiy geografik va siyosiy geografik jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yagona mintaqa sifatida rivojlanish har tomonlama manfaatli hisoblanadi. Shu jihatdan, mintaqaning markazida joylashgan O‘zbekiston asosiy e‘tiborini mintaqa yaxlitligini ta‘minlash, qo‘shnichilik aloqalarini yanada mustahkamlash va xalqaro munosabatlarni jadallashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yanada yaxshilashga qaratmoqda. Ayniqsa, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida qo‘shni davlatlar bilan tovar ayirboshlash bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishildi. Ilk bor mintaqalararo va chegara oldi hududlar o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, barcha darajalarda o‘zaro aloqalar faollashdi. Xususan, O‘zbekiston-Qirg‘iziston o‘rtasidagi anklav/eksklav va boshqa muammoli chegara

hududlari, Tojikiston bilan oxiriga yetkazilmagan delimitatsiya ishlari ijobiy tarzda hal etilmoqda.

Savdo-iqtisodiy aloqalar ham sezilarli darajada faollashdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tovar aylanmasi deyarli ikki barobar ortdi. Hamkorlikning o'sib borayotgan sur'atlaridan mintaqadagi barcha mamlakatlar real foyda olmoqda. Chunonchi, O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan umumiy tashqi savdo aylanmasi 2015-yilda 3 765,4 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 7 055,3 mln dollarga yetdi yoki keyingi 5 yilda 187,4 foizga o'sdi. Shuningdek, 2015-yilda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasining 7/10 qismi Qozog'istonga to'g'ri kelgan. Keyingi yillarda mintaqadagi integratsiya jarayonlarining faollashuvi natijasida boshqa chegaradosh davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar dinamik tarzda o'sdi. Xususan, delimitatsiya-demarkatsiya, tranzit yo'llar va suv resurslaridan foydalanish kabi muammolar sabab, O'zbekiston bilan munosabatlari sust bo'lgan Qirg'iziston bilan savdo hajmi 136,0 mln dollardan 953,7 mln dollarga (7 barobar), Tojikiston bilan 167,3 mln dollardan 605,5 mln dollarga (3,6 barobar) o'sdi.

Mintaqaviy hamkorlikning jadallashuvi har tomonlama manfaatli taraqqiyot yo'nalishi hisoblanadi. Chunonchi, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yaxlit mintaqaviy siyosat ishlab chiqish, valyutalarni o'zaro ayirboshlash, tashqi savdo va xavfsizlik borasida kelishuvga erishish, an'anaviy bozorlarni saqlab qolish hamda dunyo bozorida o'ziga xos ulushini belgilab olish borasida salohiyatlarni birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kabi omillarni inobatga olgan holda, mintaqa mamlakatlari Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi integratsion uyushmalarga a'zoligi orqali yaxshi qo'shnihilik siyosatini olib bormoqda. Natijada, transchegaraviy hamkorlik, ya'ni «kichik» integratsiya bosqichidan «katta» integratsiya bosqichiga o'tish uchun zamin yaratildi.

Yuqoridagi kabi hamkorlik aloqalarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik jihatdan tahlil qilish natijasida uzoq yillardan buyon o'z yechimini topmagan transchegaraviy resurslardan birgalikda foydalanish, chegaralarning delimitatsiya-demarkatsiya masalalari, fuqarolarining davlat chegaralaridan kirib-chiqishida yengillikning berilishi, anklav/eksklav hududlar bilan bog'liq muammolarning hal etilishi muhim tarixiy voqealik bo'lganligi yoritib berilgan

XULOSA

Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarda shakllangan muammolar borasida olib borilgan mazkur tadqiqot ishida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Mavjud ilmiy adabiyotlar asosida anklav/eksklav hududlarning turli xususiyatlari o'rganildi hamda ularga qay jihatdan yondashish, topologik va boshqaruv xususiyatlari bo'yicha «Anklav hududlarning namoyon bo'lish shakllari»ga oid ilmiy-nazariy tasnif ishlab chiqildi. Anklavlardagi hudud va aholi

ko'rsatkichlarining o'zaro mutanosibligi nuqtai nazaridan hududiy-demografik model taklif etildi. Shuningdek, «Anklav hududlarni tadqiq etishning kompleks tahlili» yuzasidan ishlab chiqilgan anklav/eksklav hududlarni shakllantiruvchi va yo'qolib ketishiga ta'sir etuvchi, geosiyosiy va geoiqtisodiy muammolarni yuzaga keltiruvchi hamda tasniflashga asos bo'luvchi omillar orqali geografik jihatdan o'rganish metodologiyasi takomillashtirildi.

2. Anklav hududlarni vujudga kelish davrlarini ilmiy manbalar asosida o'rganilib, to'rt bosqichga bo'lib tahlil qilindi. Har bir «to'lqin»da shakllangan anklav/eksklav hududlar o'z vaqtida ma'lum siyosiy obyekt yoki «organizm» vazifasini bajarishi siyosiy geografik nuqtai nazardan asoslandi. Qolaversa, anklavlar joylashgan mintaqalarda siyosiy boshqaruv tizimining o'zgarishi yoxud ularni o'rab turuvchi davlat tomonidan «hazm qilib yuborilishi» natijasida ularning de-fakto va de-yure kabi huquqiy asoslari ochib berildi.

3. Anklav hududlar biror bir siyosiy borliq – davlatga tegishli bo'ladi. Biroq amaliyotda shunday davlatlar ham borki, ularning o'zi to'laligicha suveren anklav davlat hisoblanadi. Bunday mamlakatlar o'zi mustaqil tuzilma bo'lgani uchun tashqi siyosati, iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarini keng yo'lga qo'yishda qo'shni davlatga tayanishini inobatga olib, integratsion qo'shnicilik aloqalarini amalga oshirilishi eng maqbul jarayon ekanligi o'rganildi. Shu jihatdan, suveren anklav davlatlarga oid tadqiqotlar zamonaviy siyosiy geografiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qarash mumkinligi asoslandi.

4. Jahondagi anklav hududlarga oid olib borilgan izlanishlar asosida ma'lum hududda arxipelag ko'rinishida joylashgan anklavlarning yaqin masofada emas, balki biri boshqasining ichida joylashishi mumkinligi «matryoshka» misolida o'rganildi. Ular o'zi namoyon qiluvchi geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyatlarning dolzarbligi jihatidan alohida o'rganishni taqozo etadi. Oxirgi chorak asrda shakllangan «matryoshka»larning vujudga kelish omillari orqali hududiy modellar ishlab chiqildi. Modellarini ajratishda o'sha hududning tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik xususiyatlari inobatga olindi. Mazkur tadqiqot ishida jahondagi mavjud bir necha tartibli anklavlarni o'rganish asosida «Yevropa», «Janubiy Osiyo» va «Yaqin Sharq» modellari ishlab chiqildi. Tahlil etilgan modellar asosida mavjud muammolarni bartaraf etishga oid tajribalarni Markaziy Osiyo anklavlarida ham amaliyotga tadbiiq etish taklif etildi.

5. Ayrim mintaqalarda ma'lum bir hudud davlatning asosiy qismidan ajralmagan bo'lsa-da, ona davlat bilan bog'lanishda transport tranzitligi imkoniyatining yo'qligi sababli o'zaro aloqalar qo'shni davlat hududi orqali amalga oshiriladi. Bu turdagi hududlar siyosiy geografik izlanishlar jarayonida peneanklav deb yuritiladi. Peneanklavlar, odatda, tog'li (Avstriya Alpidagi Klyaynvalzertal, Pireney tog'laridagi Os-de-Sivis), suvli hududlar (Markaziy Osiyodagi Arnasoy, Maktaaral hududi) va boshqa harakatlanish qiyin bo'lgan rayonlarda vujudga keladi. Amaliyotda bunday hududlar anklav sifatida hisoblanmasa ham, boshqa anklav turlari bilan ayrim muammolarining o'xshashligi sababli ushbu turdagi tadqiqotlar doirasida o'rganilishi asoslandi.

6. Markaziy Osiyoda 1924-yilda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish mintaqa zamonaviy siyosiy xaritasining shakllanishiga zamin yaratgani tarixiy-geografik jihatdan asoslandi.

Chegaralanish amalga oshirilganidan keyin anklav/eksklav hududlarning shakllanishi va o'zgarish jarayoni tarixiy-geografik jihatdan 1924–1954, 1955–

1990, 1991–2022-yillar bo'yicha davrlashtirildi. Tegishli siyosiy geografik jarayonlarni yuzaga keltirgan omillar aniqlandi.

7. Submilliy anklav tushunchasi takomillashtirilib, uning mohiyati va olti tomonlama vektorli siyosiy-hududiy munosabatlar tizimi So'x anklavi misolida ochib berildi. Mazkur submilliy anklav iqtisodiy geografik va siyosiy geografik jihatdan kompleks tahlil qilindi. So'x anklavini kompleks jihatdan o'rganish sanoat (yengil, oziq-ovqat, qurilish materiallari), qishloq xo'jaligi (bog'dorchilik, sabzavotchilik; asalarichilik, baliqchilik, parrandachilik), transport va aloqa, ta'lim va sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, turizm (ekoturizm, ziyorat turizmi) sohalarini hududiy tashkil etish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi sotsiologik so'rovnomalar orqali asoslandi. Natijada, anklavni kelajakda rivojlantirish uchun muhim bo'lgan strategik yo'nalishlari aniqlandi.

8. Hududiy-demografik salohiyati past, turli geografik nomlar bilan ataluvchi mikroanklavlarning etimologiyasi tarixiy, semantik, lingvistik, lug'aviy-geografik jihatdan aniqlashtirildi. Shuningdek, ularni davlatlararo teng maydondagi yer almashtirish kelishuvi orqali bartaraf etib, mavjud muammolarga barham berish mumkinligi Barak anklavi misolida o'rganildi. Biroq strategik ahamiyatga ega bo'lgan (So'x, Vorux, Shohimardon kabi) yirik anklavlarning kelajakda ham «geosiyosiy orol» sifatida mavjud bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

9. Markaziy Osiyodagi anklav/eksklav hududlarga oid muammolar yechimining ideal modeli ichki nizolar va qarama-qarshiliklardan holi, o'zaro manfaatlar va ustuvorliklar bilan birlashtirilgan, mintaqa mamlakatlari uchun umumiy qadriyatlar va an'analarga asoslangan mustahkam va yaxlit mintaqani yaratish ekanligi asoslandi.

10. Anklavlar geografiyasi nazariy jihatdan tahlil qilinib, mavjud metodologik qarashlar asosida Markaziy Osiyodagi anklavlarning iqtisodiy geografik va siyosiy geografik manzarasi yoritib berildi. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, ularning ixtisoslashuv tarmoqlari ajratildi hamda mintaqa mamlakatlarining integratsion aloqalari yangi davr nuqtai nazaridan tahlil etildi. Mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi har tomonlama manfaatli tendensiya ekanligi Markaziy Osiyo misolida yoritib berildi. Jumladan, mazkur hududdagi mamlakatlar uchun yagona mintaqaviy siyosat ishlab chiqish, valyutalarni o'zaro ayirboshlash, tashqi savdo va xavfsizlik borasida kelishuvga erishish, an'anaviy bozorlarni saqlab qolish hamda dunyo bozorida o'ziga xos ulushini belgilab olish borasida salohiyatlarni birlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУМАХАНОВ ШАВКАТЖОН ЗАИРЖАНОВИЧ

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОНОМИКО-
ГЕОГРАФИЧЕСКИХ И ПОЛИТИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ АНКЛАВНЫХ/ЭКСКЛАВНЫХ ТЕРРИТОРИЙ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2020.3.DSc/Gr25 в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.pauka.nuu.uz) и информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Боймирзаев Каримжон Мирзахмедович
доктор географических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Тожиева Зулхумор Назаровна
доктор географических наук, профессор

Ибрагимов Лутфулло Зиядуллаевич
доктор географических наук, доцент

Рафиков Вахоб Асомович
доктор географических наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится 22 июня 2023 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 Национального университета Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Университетская ул. дом 4. Тел.: (+99824) 246-53-21. факс: (+99824) 246-53-21; 246-02-24; E-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru). Факультет географии и геоинформационных систем Национального университета Узбекистана.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за номер № ____). (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (+99871) 246-67-71).

Автореферат диссертации разослан 10 июня 2023 года.
(Протокол реестра № 52 от 7 июня 2023 года).

Н.И.Сабитова

Председатель Научного совета по
присуждению научных степеней,
д.г.н., профессор

Ш.М.Шарипов

Секретарь Научного совета по
присуждению научных степеней,
д.г.н., доцент

З.Н.Тожиева

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
научных степеней, д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире быстрый рост народонаселения, развитие международных связей способствуют ускорению социально-экономического развития, формированию специальных территорий и осложнению совместного использования трансграничных ресурсов. В качестве положительного решения данных проблем рядом международных организаций, в частности, в Программе по устойчивому развитию до 2030 года Департамента по вопросам экономического и социального развития ООН поставлены задачи по «Активизации глобального взаимодействия и укреплению международных связей на пути устойчивого развития»¹. В решении этих задач, особенно, в развитии социально-экономических связей между странами, особую актуальность имеет стабилизация ситуации на анклавных/экславных территориях, имеющих трансграничный характер.

В мире приоритетное внимание уделяется исследованиям в данном направлении, в частности, выявлению факторов формирования анклавных/экславных территорий и разработке их принципов и критериев как территориальной категории, оценке экономических показателей эффективного совместного использования ресурсов анклавных/экславных территорий. При этом большое значение имеют исследования, относящиеся к моделированию векторных отношений между основным и окружающим государствами, определению формирования и периодического изменения, оценке экономико- и политико-географического положения, определению хозяйственной специализации в связи с природными условиями, стабилизации социально-экономической ситуации анклавных/экславных территорий в различных макрорегионах мира.

В нашей республике реализуются реформы, направленные на проведение открытой и прагматичной, основанной на добрососедстве, взаимном доверии и уважении внешней политики и достигаются ощутимые положительные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по «качественному повышению тесного сотрудничества в Центральной Азии в области безопасности, торгово-экономической, водной, энергетической, транспортной и культурно-гуманитарной сферах»². В этой связи большое значение приобретают экономико- и политико-географические исследования, направленные на устойчивое социально-экономическое развитие специфических приграничных политико-географических структур – анклавных / экславных территорий.

В связи с этим большое значение приобретают экономико- и политико-географические исследования, нацеленные на решение проблем особых

¹ Sustainable Development Goals / High-level Meeting on Financing the 2030 Agenda for Sustainable Development // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони

политико-географических приграничных структур – анклавных/эксclaveвых территорий.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит в реализации задач, определенных Указом Президента Республики Узбекистан № УП-5400 «О мерах по коренному совершенствованию системы Министерства иностранных дел Республики Узбекистан и усилению его ответственности за реализацию приоритетных направлений внешнеполитической и внешнеэкономической деятельности» от 5 апреля 2018 года, Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-4798 «О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Сохского района Ферганской области в 2020-2021 годах» от 8 августа 2020 года, Указом Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года и других нормативно-правовых актов, касающихся данной деятельности.

Связь исследования с основными приоритетными направлениями развития науки и техники в республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением республиканского развития науки и техники I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации⁴. Научные исследования по определению правового статуса, оценке экономико- и политико-географических особенностей принадлежащих одному государству, но расположенных в границах других государств, анклавных/эксclaveвых территорий проводятся в ведущих мировых организациях, научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе: Harvard University, New York University, Stanford University, University of Chicago, University of Florida (США); University of British Columbia (Канада); Newcastle University, University of Oxford, University of Cambridge (Великобритания); University of Melbourne (Австралия); Humboldt-Universität zu Berlin (Германия); Sorbonne Université, Université Grenoble Alpes (Франция); Wageningen University and Research Center (Нидерланды); International University of Business and Economics (Китай); Singapore Management University (Сингапур); University of Zurich (Швейцария); Komazawa university (Япония); Московский государственный университет, Санкт-Петербургский государственный экономический университет, Балтийский федеральный университет (Россия); Қазак ұлттық университеті (Қозғоғистон); Кыргыз улуттук университети (Қирғиз Республикаси); Донишгоҳи миллии Тоҷикистон (Тоҷикистон) высшие учебные заведения, а также Программа развития ООН (UNDP, United Nations Development Programme); The World Bank (Всемирный банк, США) и других.

В результате проведенных в мире исследований по определению правового статуса анклавных/эксclaveвых территорий, моделирования их векторных отношений, обоснованию взаимосвязи их хозяйственной

⁴ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: разработан на основе URL: <https://www.ined.fr>, <https://www.edu>, <https://eh.net/encyclopedia/article> и др. источники.

специализации с природными условиями и ресурсами, был получен ряд научных результатов: выделены полные и полуанклавные суверенные государства (The World Bank, США); разработана типология анклавных территорий и определены их специфические функции (Humboldt-Universität zu Berlin, Германия); разработаны сравнительные модели приграничных проблем анклавных территорий (Newcastle University, Великобритания); усовершенствована методика географического детерминизма в историко-географическом исследовании анклавов/экславов (Sorbonne Université, Франция); оценены экономические показатели эффективного использования ресурсов анклавных/экславных территорий в туристических целях (Wageningen University and Research Center, Нидерланды); усовершенствована методология геоэкономических и геостратегических аспектов анклавных/экславных территорий (Балтийский федеральный университет имени Иммануила Канта, Россия).

В мире ведутся научно-исследовательские работы по ряду приоритетных направлений по научно-теоретическим основам экономико-географического и политико-географического изучения анклавных/экславных территорий, в частности по следующим приоритетным направлениям: мониторинг политико-географических особенностей стран мира, форм правления, государственного устройства, территориально-политических систем государств мира; оценка геоэкономической и геополитической устойчивости анклавных/экславных территорий; теоретическая оценка вопросов, связанных с описанием, классификацией, правовым статусом понятий анклавов/экславов; выработка основ оценки геополитического положения, уровня социально-экономического развития и политико-географического статуса суверенных государств-анклавов и др.

Степень изученности проблемы. На сегодняшний день существует множество научных работ и статей, связанных с изучением существующих проблем анклавных/экславных территорий как отдельного объекта исследования с политико-географической точки зрения.

Например, если зарубежные исследователи непосредственно анализировали проблемы анклавов/экславов как геоэкономических и геополитических субъектов, то отечественные ученые косвенно рассматривали экономические и социально-географические аспекты этого вопроса в некоторых своих исследованиях. Тем не менее, круг работ, посвященных политико-географическому изучению существующих проблем анклавов/экславов как отдельного объекта исследования, основанному на векторных отношениях, определенно ограничен.

В работах зарубежных ученых, в том числе Н.М. Catudal, В. Fazendeiro, М. I. Glasner, N. Megoran, А. Melamid, J. Minghi, S. Nies, D'Olivier Farran, М. Pietkiewicz, J. R. Prescott, P. Raton, G. W. Robinson, I. Siedentop, E. Schuyler, А. Taylor, В. R. Whyte; Буяновского И. А., Виноградова М. В., Винокурова Е. Ю., Голубчика М. М., Журавского С., Зайцева В. М., Зверева Ю. М., Зверинцевой Т. В., Макошева А. П., Мироненко Н. С., Рожкова-Юревича Ю. Д. и других отражены результаты исследований геополитического и геоэкономического

положения регионов мира, политико-географической ситуации и анклавных/экславных территорий.

Из числа ученых Центральной Азии рассматриваемые вопросы изучали С.К.Аламанов, С.Анвар, А.А.Аубакирова, Ю.И.Ахмадалиев, Р.Ф.Габдулхаков, А.Т.Жалилов, А.Койчиев, А.А.Каюмов, А.С.Салиев, С.С.Сафоев, У.Суфиев, В.Маслов, М.И.Назаров, А.А.Ибраимова, Ф.Ф.Толипов, В.Н.Федорко и др.

